



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 25-iyun, seshanba,  
74 (23.951)-son

KUN  
HIKMATI

Farzand  
oldidagi burchni  
vijdoningiz  
so'rab turishi  
kerak

# Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

## Yoshlar oyligi doirasida



## Yoshlar e'tiborda

"Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostidagi festival Samarqand shahrida ham ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi. Ko'hna kentning istirohat bog'lari, ko'cha va xiyobonlarida, tarixiy qadamlari va muzeylarida, ta'lim muassasalarida turli xil ko'rgazmalar, madaniy-ma'rifiy kechalar, tanlov hamda musobaqalar tashkil etildi.

### BUYUKLAR XOTIRASIGA EHTIROM KO'RSATILDI

Festival shahardagi Amir Temur, Alisher Navoiy va Mirzo Ulug'bek haykallari poyiga gullar qo'yish bilan boshlandi.

- Yirik tadbirlar avvalida buyuklarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirish an'anaga aylangan, - deydi respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Dilshod Ismoilov. - Bugungi festival oldidan ulug' bobolarimiz, allomalarimiz haykallari poyiga gullar qo'yishimiz yoshlarning tariximizni chuqurroq anglab, kelajakka dadil qadam qo'yishi uchun xizmat qiladi.

### VILOYAT HOKIMI FAN OLIMPIADASI

Shahardagi oliy ta'lim muassasalarida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari uchun «Viloyat hokimi fan olimpiadasi» tashkil etildi. Samarqand davlat tibbiyot universitetida kimyo fanidan o'tkazilgan olimpiadada viloyatning barcha shahar va tumanlaridan kelgan 50 ga yaqin yoshlar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdi.

Yakunga ko'ra, 10-sinf o'quvchilari o'rtasida 1-o'rinni Paxtach tumani 37-maktab o'quvchisi Zulfiyaxon Maxsiddinova, 2-o'rinni Oqdaryo tumani 45-maktab o'quvchisi Sevinch Maxmayusupova, 3-o'rinni Toyloq tumani 43-maktab o'quvchisi Sabina Axmadova qo'lga kiritdi. 11-sinf o'quvchilari o'rtasida esa 1-o'rinni Payariq tumani 14-maktab o'quvchisi Olovuddin Abduraimov, 2-o'rinni Jomboy tumani 12-maktab o'quvchisi Og'abek Sobirov, 3-o'rinni Nurobod tumani 11-maktab o'quvchisi Gulasal Xushmurodova egalladi.

### MUZ USTIDA MUSOBAQA

Yoshlar festivali doirasida Samarqand shahridagi muz saroyida havaskor yosh sportchilar o'rtasida musobaqa o'tkazildi. Unda 50 nafarga yaqin yigit-qiz ishtirok etdi.

- Bugun ilk bor muz ustida uchdim, - deydi Sindor Mirzayev. - Hayajon kuchli bo'ldi. Yiqilib qolaman, deb o'ylagandim. Ammo start chizig'idan marragacha yiqilmasdan, birinchi bo'lib yetib keldim. Tadbir davomida muz ustida hokkey va figurali uchish bo'yicha jahon chempioni bo'lgan sport ustalari tomonidan mahorat darslari o'tkazilgani ham biz kabi yoshlarning bu sport turiga qiziqishimizni yanada oshirdi.

### FESTIVAL MUSHAKBOZLIK BILAN YAKUNLANDI

Yoshlar oyligi doirasida o'tkazilgan festival shaharning Qorasuv massividagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida yakuniy konsert dasturi bilan nihoyasiga yetdi.

Unda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtirok etib, samarqandlik yoshlarni qutladi. Shahar yoshlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda munosib hissa qo'shib kelayotgan faollar taqdirlandi.

- Bugun taqdirlanganlar orasida ekanligimdan xursandman, - deydi Obod maskan mahallasi yoshlar yetakchisi Mamasoli Ibodullayev. - Ish faoliyatim davomida, albatta, mahalla faollari bilan birgalikda e'tibordan chetda qoladigan yoshlar bilan ishlashga harakat qilaymiz. Jumladan, imkoniyati cheklangan yigit-qizlarga ko'proq e'tibor qaratib, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashaymiz. Natijada mahallamiz yoshlaridan biri Sabina Egamberdiyevani "Besh tashabbus olimpiadasi"da parashashka yo'nalishida ishtirok etishga taklif qildik va o'tgan yili musobaqaning respublika bosqichida g'olib bo'ldi. Bu yil ham ushbu sport turi bo'yicha musobaqaning viloyat bosqichida birinchi o'rinni egalladi.

Konsert dasturi tanliq san'atkorlarning chiqishlari bilan davom etdi va tadbir so'ngida namoyish etilgan mushakbozlik yig'ilganlarga haqiqiy bayramona kayfiyat ulashdi.

Bu kabi festivallar viloyatning barcha hududlarida, xususan, Kattaqo'rg'on shahri, Toyloq va Samarqand tumanlarida ham ko'tarinki kayfiyat bilan o'tkazildi. Yoshlar oyligi doirasidagi tadbirlar hali davom etadi.

Ayni paytda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 26-30-iyun kunlari O'zbekistonda birinchi marotaba o'tkazilishi rejalashtirilgan Butunjahon yoshlar festivaliga ham qizg'in hozirlik ko'rilyapti. 100 dan ortiq davlatdan ming nafarga yaqin xorijlik yoshlar ishtirok etishi kutilayotgan mazkur festivalning ochilish marosimi 26-iyun kuni "Boqiy shahar" majmuasi hududidagi amfiteatrda o'tkazilishi belgilangan.

To'liq SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## Prezident qaroriga ko'ra

## Davlat xizmatchilari korrupsiyaga qarshi kurashish

sohasida har uch yilda bir marta malaka oshiradi

"Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarorida bu borada aniq vazifalar belgilangan.

Qarorga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasi (Virtual akademiya) joriy etiladi. Ya'ni, tinglovchilar muayyan joyga to'plab, o'qitilmaydi.

Shu bois o'quv dasturlari zamonaviy bo'lishi uchun ham mutasaddilarga aniq topshiriqlar berilgan. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Virtual akademiya yuqorida qayd etilgan muddatga qadar elektron platforma va uning mobil ilovasini ishga tushiradi.

Kimlar o'qiydi, degan savol tug'ilishi mumkin. Qarorda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishi lozim bo'lgan davlat xizmatchilari kontingentini shakllantirishi ko'zda tutilgan.

Davlat xizmatchilariga Virtual akademiyaning maxsus o'quv kurslarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirish majburiy hisoblanadi. Bunda davlat xizmatchisi ishga qabul qilingandan so'ng uch oy ichida o'quv kursidan o'tadi. Demak, ish

boshlab, mavjud sharoit va muhitga ko'nikma hosil qilgach, korrupsiyaga qarshi kursda o'qib, zarur bilimga ega bo'lishi shartli belgilanmoqda.

Hujjat bilan ular har uch yilda kamida bir marta malaka oshirishi belgilangan.

Darvoqe, maxsus o'quv kurslarida malaka oshirish to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

To'lov miqdori Akademiyaning Vasiylik kengashi tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Davlat organlari va tashkilotlari muntazam ravishda o'z xodimlarining Virtual akademiya korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borishlarini ta'minlaydi.

Aholining ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlari oshiriladi, deyilmaganmide, deyshingiz mumkin. Qarorda aniqlik kiritilishicha, Virtual akademiya bazaviy o'quv kurslari ham yo'lga qo'yiladi. Ushbu kurslarda malaka oshirish barcha foydalanuvchilar uchun bepul asosda tashkil etiladi.

## Germaniya bilan hamkorlikda salomatlik maktabi ochildi



Samarqandda O'zbekiston ommaviy-huquqiy tadqiqotlar markazi va Germaniyaning Konrad Adenauer fondining yurtimizdagi vakolatxonasi hamkorligida "Insonning salomatlik huquqi va davlatning roli" mavzusi VII xalqaro fanlararo ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Unda Germaniya va O'zbekistonlik ekspertlar, sud-huquq tizimi, sog'liqni saqlash sohasi vakillari, olimlar ishtirok etdi.

Konferensiyada xorijiy tibbiyot xodimlarini birlashtirish loyihalari, kasalxonalarini boshqarish, salomatlik masalalarida tanliq olimlarning ma'ruzalari tinglandi, muhokama etildi.

- Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat siyosati fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish va tibbiy yordamga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishini ta'minlashdan iborat, - deydi O'zbekiston Respublikasi Ommaviy-huquqiy tadqiqotlar markazi direktori Azamat Egamberdiyev. - 2023-yil 30-aprel kuni mamlakatimizda bo'lib o'tgan referendumda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, sud-huquq tizimi, sog'liqni saqlash sohasi vakillari, olimlarini ta'minlash, inson qadrini ulug'lash masalalarga katta o'rin berilgan. Shuningdek, ijtimoiy davlat tamoyili, keksa avlod vakillari, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishonchli himoya qilish, xotin-qizlar va yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, ta'lim va ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish, fuqarolarning ekologik huquqlarini, ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlash kabi ko'plab prinsipial ahamiyatga ega masalalar kiritilgan.

Konstitutsiyaga yangi tushunchalarning tegishli qonunlar hamda siyosiy-huquqiy dasturlar asosida kiritilishi salomatlik huquqining milliy konsepsi-

yasini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Germaniya va o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan O'zbekiston hamkorligida bunday muloqotlarning o'tkazilishi sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat va salomatlik huquqining ahamiyati hamda mazmuni haqidagi nazariy g'oyalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Anjumanda ikki davlat olimlari hamkorligida salomatlik va huquqqa doir o'quv qo'llanmalar, ilmiy ishlanmalar yaratish masalasi ilgari surildi. Konferensiya doirasida O'zbekiston-Germaniya "Abu Ali ibn Sino va Xaynrix Shipperges nomidagi Samarqand xalqaro salomatlik fanlari oliy maktabi" nodavlat ta'lim muassasasining ochilish marosimi ham bo'lib o'tdi.

# Sifatli tibbiy xizmat aholiga yaqinlashyapti

**Sog'liq – inson  
hayoti uchun eng  
kerakli ne'mat  
bo'lgani bois bu  
yo'nalish davlatimiz  
ijtimoiy siyosatining  
muhim negizi etib  
belgilangan.**

Mamlakatimizda "in-son qadri" tamoyili asosida xalqimiz sog'lig'ini saqlash, aholining sog'lom turmush kechirishini ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilyapti. Islohotlar eng avvalo, birlamchi tibbiyot bug'ini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini o'zgartirishdan boshlandi. Har bir mahallada xonadonbay ishlaydigan patronaj xizmatini tashkil etish orqali sog'liqni saqlash tizimi aholiga yaqinlashtirildi.

Masalan, birgina 2022-yilda joylarda 136 ta oilaviy shifokorlik punkti va oilaviy poliklinika, chekka hududlarda 1000 dan ortiq mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi. Oilaviy shifokorlar tomonidan aholiga bepul tarqatiladigan 70 xildagi dori-darmon uchun mablag'lar hajmi o'tgan yillarga nisbatan 3 barobar oshirildi.

Bugun 130 dan ziyod jarrohlik amaliyotlari viloyat shifoxonalarda, 60 turi esa tumanlarda birinchi marta yo'lga qo'yilgan. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74 yoshdan oshishiga erishildi.

2023-yilda mamlakatimizda 900 mingdan ortiq chaqaloq tug'ilgani qayd etilgan. Prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib, mamlakatimiz aholisi soni 40 millionga yetadi. Bunday katta nufuzli davlatda shart-sharoitlar yaratish uchun iqtisodiyot ham, boshqaruv ham, ta'lim ham, shu jumladan, tibbiyot ham yangicha bo'lishi, unda o'sish va rivojlanish ta'minlanishi kerak.

Shu ma'noda, Prezidentimiz shu yil 21-may kuni Sog'liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishish davomida ushbu masalalarga alohida to'xtalib, jamiyatda sog'lom turmush tarzini keng yoyish orqali kasalliklarning oldini olish, odamlarda o'z salomatligiga mas'uliyat hisini kuchaytirish mumkinligini ta'kidladik.

Bu o'z navbatida, mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham 2017-yilda sog'liqni saqlash tizimiga 5,9 trillion so'm ajratilgan bo'lsa, hozir bu miqdor 6 barobarga oshirildi. Natijada tibbiy xizmatlardan foydalanish qulayligi oshdi, tibbiyotda xususiy sektor-ga keng yo'l ochilib, sifatga intilish paydo bo'ldi.

Jumladan, tibbiyot tashkilotlari tarmog'i kengaytirilib, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari soni qariyb 2 barobar ko'paydi. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari tarmog'i har bir mahallagacha kirib bordi. Ularning faoliyati tubdan o'zgardi. Respublika muassasalari tomonidan hududlarga chiqqan holda tibbiy ko'riklar tashkil etilib, joyida tibbiy yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi.

Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, xavf guruhiga kiradigan bemorlar orasida dispanserizatsiya va skrining tadbirlari, patronaj va dispanserizatsiyaning samarali modellari joriy etildi, reabilitatsiya tibbiyotini rivojlantirish, "uy statsionari" va "kunduzgi statsionar" xizmati kengaytirildi.



Individual elektron qurilmalar yordamida qayd etilgan xavf ostidagi guruhga kiruvchi ambulator bemorlarning sog'lig'i ko'rsatkichlari o'zgarishiga shoshilinch choralar ko'rish tizimi – "Mahalla profili" yaratildi, mahallalarda "Salomatlik maktabi" tashkil etildi.

Bunday tadbirlar aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lom insonlar safini kengaytirish, sog'lom jamiyatni barpo etish uchun zamin yaratadi.

Binobarin, tizimni zamon talablariga mos rivojlantirish, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va bu xizmatdan xalqimizni rozi qilishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Taqdimotda ilgari surilgan har bir yangi taklif sog'liqni saqlash tizimidagi muammolarni chuqur o'rganish asosida tibbiyotning eng ko'p murojaat qilinadigan birlamchi bo'g'ini va tez tibbiy yordam tizimida fuqarolar va tibbiyot xodimlarini qiynayotgan masalalar yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatli desak, yangilashmaymiz.

Eng muhimi, ushbu takliflarni ishlab chiqishda xorijiy ekspertlar jalb qilingan holda ularning tajribasini milliy tibbiyotimizga integratsiya qilish nazarda tutilgani tizimni xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini kengaytiradi.

Jumladan, birlamchi bo'g'ida faoliyat yurituvchi shifokor va hamshiralalar vazifalari qayta taqsimlanadi, yil yakuniga qadar 7 ta eng ko'p uchraydigan kasallik va holat bo'yicha kafolatlangan paket hamda yana 300 ta klinik protokollar qayta ko'rib chiqiladi.

Toshkent shahrida sohani raqamlashtirish bo'yicha namunaviy tizim yaratilishi, buning uchun barcha muassasalar yangi kompyuter va texnika vositalari bilan jihozlanishi, yil yakunigacha "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" tizimlari ishga tushirilishi ham ayni muddaodir. Bularning barchasi aholiga kafolatlangan paket asosida bepul tibbiy yordam ko'rsatish, sohaga ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Taqdimotda tez tibbiy yordam tizimi tahlil qilinarkan, asosiy muammo murojaatlarni kasallikning og'irligiga qarab saralamlaslik bilan bog'liq ekanini ko'rsatib o'tildi. Shu bois tez yordam "call-markaz"larida bemorlarga shifokor maslahati ham yo'lga qo'yilishi belgilandi. Bu yil Toshkent shahrida, kelasi yili boshqa hududlarda paramedik va pediatrik brigadalar tashkil qilinadi. Tizim xodimlari tibbiy maslahat shifokori, chaqiruvni saralash operatori, feldsher-paramedik yo'nalishida qayta tayyorlanadi.

Umuman olganda, taqdimotda belgilab berilgan vazifalar nafaqat soha vakillari, balki bida, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Bu jarayonda biz ushbu vazifalarning samarali bajarilishi ustidan doimiy ravishda parlament nazoratini olib borishimiz, sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishimiz kerak. Zotan, bu loyihalarning bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi.

**Muzaffara ABDIYEVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning  
sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi.**



## Oilasi va kasbidan ortib...

↓ Davr fidoyilari

**Nilufar Nurmatova yuqori malakali tibbiyot xodimi sifatida zamonaviy bilimga ega, yoshlarga o'z bilim va ko'nikmalarini o'rgatib, sog'lomlashtirish-profilaktik tadbirlar sifatini yuksaltirish borasida samarali ish olib borayotgan tajribali rahbar.**

Payariq tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'ining o'rinbosari sifatida uning tashabbusi va bevosita tashkilotchiligi sabab keyingi uch yilda tumanda onalar o'limi kuzatilmadi.

N.Nurmatova 2014-2019-yillarda xalq deputatlari Payariq tumani Kengashi, 2019-yildan buyon viloyat Kengashi deputati sifatida faoliyat olib bormoqda.

Viloyat Kengashi deputati sifatida tuman-

dagi 62 nafar yuqori texnologiyali operatsiyaga, 24 nafar gemodializga muhtoj fuqaroning sog'lig'ini tiklash uchun mablag' ajratilishida amaliy yordam ko'rsatadi.

O'zining fidoyiligi, mehnatsevarligi, jonkuyarligi va talabchanligi, tashkilotchilik qobiliyati, mehribonligi bilan tuman tibbiyot birlashmasi xodimlari va tumandagi fuqarolar orasida hurmat-e'tibor qozongan.

## Harakat qilgan muhtoj bo'lmaydi

**Nurobodlik hunarmand Qudratoy Sanayeva bo'laligan tikuvchilikka qiziqardi. Bu hunarni onasidan o'rganib, avvaliga qo'l bilan ishlatiladigan oddiygina tikuv mashinasi yordamida qo'ni-qo'shnilarining buyurtmasiga asosan, ko'rpa-yostiqlar tayyorlardi.**



Qudratoy yoshlik chog'ida suyak yemirilishi kasalligiga chalingdi va bir oyog'idan ayrildi.

- Nogiron bo'lsam-da, birovga muhtoj bo'lib qolmaslikka harakat qildim, - deydi u. - Qo'limda hunarim bor edi. Tikuvchilik bilan shug'ullanib

ovunardim, dardlarimni unustirishga urinardim. Toshkentdagi bir tikuv sexidan buyurtma olib, kasanachi sifatida faoliyat yuritga boshladim. Mana, ikki yarim yildan beri shu yumush bilan shug'ullanib kelaman. Bichilgan materialdan bolalar kiyimlarini tayyorlab, jo'natamiz. Avvaliga oddiygina tikuv mashinasi bilan bu ishni bajarishga qiynaldik. Keyinchalik o'zim yashaydigan hudud - Sharq yulduzi mahallasi faollari murojaat qildim. Ular subsidiya asosida menga zamonaviy tikuv mashinasi berilishiga ko'maklashdilar.

Ishlari yurishib, shogirdlar

tayyorlay boshladi. Dastlab yangisi Gulhayo Sanayeva unga shogird tushdi. Uning ham ishsizligi inobatga olinib, mahalla faollari tashabbusi bilan bu xonadonga yana bir zamonaviy tikuv mashinasi subsidiya asosida berildi.

- Bu xonadonga kelin bo'lib tushganimga oddiy tikishlarni epolmasdim, - deydi G.Sanayeva. - Avvaliga rosa xato qildim. Bugun qo'lim kelishib qoldi. Asta-sekin mohir tikuvchi bo'lishga harakat qilyapman. Qaynonamdan ham, qayinsingilmdan ham minnatdorman. Qudratoy yangasidan boshqa yana 5 nafar ishsiz xotin-qizni shogirdlikka olgan. Topayotgan daromadi evaziga yana ikkita tikuv mashinasi ega bo'ldi. Kelgusida faoliyatini kengaytirib, tikuv fabrikasi tashkil etish niyati bor.

**Gulchehra MAMATOVA,  
Baxtiyor MUSTANOV  
(surat).**

**Oliy ta'lim muassasalarida qabul kvotalari sonining oshishi talabalar turar joyiga bo'lgan talabning ham ortishiga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda tadbirkorlar tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turarjoylari qurib berilyapti, eskilari ta'mirlanib, zamonaviy shart-sharoitlar yaratilyapti. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida tahsil olayotgan talabalariga bu borada qanday qulayliklar yaratilgan, talabalarining turarjoyga ehtiyoji necha foiz qondirilgan? Talabalar bo'sh vaqtini qanday o'tkazayapti? Ushbu savollarga javob topish maqsadida universitet hayoti bilan tanishdik.**

- 2000-yilning boshida yotoqxonalarimiz atigi ikkita edi, - dedi universitet rektori Xudoynazar Yunusov. - Birida 286 o'rin, ikkinchisida 300 o'ringa yaqin joyimiz bo'lib, bor-yo'g'i 600 nafar talabani yotoqxonaga bilan ta'minlash imkoniyati bor edi. Keyingi olti yil ichida olib borilgan ishlar va hukumat tomonidan qilingan yordamlar evaziga bitta yotoqxonamiz 450 o'ringa moslashtirildi. 2-talabalar turarjoyi kapital ta'mirlandi va talabalarning yashashi uchun sharoitlar yaratildi. Masalan, har qavatda oshxonaga, kir yuvish xonalari, ma'rifat xonasi, ota-onalarga alohida xona tayyorlab

## Turarjoyga ehtiyoj 50 foizga qoplanadi

qo'ydik. Mabodo ota-ona farzandini ko'rganidan olisidan kelib, qaytishga ulgurmasa, yotoqxonada qolishi mumkin.

Bundan tashqari, universitetning kirish qismida 350 o'rinli yotoqxonaga ishga tushdi. Bu yil yana ikkita yotoqxonaga foydalanishga topshirilish arafasida. Natijada talabalar turarjoyi o'rni 1300 atrofida bo'ladi. Shuningdek, davlat xususiy-sheriklik asosida ham talabalar yotoqxonalarini qurilyapti. Hukumat qaroriga muvofiq, universitetimizga to'rtta talabalar turarjoyi qurilishi belgilangan edi. Shundan ikkitasi topshirilish arafasida. Qolgan ikkitasi ham nasib bo'lsa, yaqin yillarda quriladi va talabalar turarjoyiga bo'lgan ehtiyoj 40-50 foizga qoplanadi.

Keyingi yillarda universitetimizga xorijiy talabalar ham kela boshladi. Turkiya, Rossiya kabi davlatlardan talabalar kelib o'qiyapti. Ularni ham zamonaviy yotoqxonalar bilan ta'minlash maqsadida yangi qurilayotgan yotoqxonalarida bir xil uslubda emas, balki uch xil kategoriyada sharoit yaratishni reja qildik. Bu - oddiy yotoqxonalar, ya'ni to'lovi kam, o'rtacha yotoqxonalar - sharoiti va to'lovi biroz baland va yuqori sifatli yotoqxonalar - to'lovi qimmat bo'ladi. Xorijiy oliy ta'lim muassasala-

rida yotoqxonalar mana shu tartibda qurilgan bo'lib, talabalar cho'ntag'i ko'targanida istiqomat qiladi.

Yakuniga yetgan o'quv yilida universitetimizda 24 nafar xorijlik professor-o'qituvchi faoliyat yuritdi. Yangi qurilayotgan yotoqxonalarida ular uchun ham qulay shart-sharoit yaratishni rejalashtiryapmiz. \*\*

Darhaqiqat, bugun talabalar turarjoylarida pazandalik, tikuvchilik, rassomlik, milliy kurash kabi to'garaklar mavjud. Tikuvchilik to'garagi rahbari Zulayho Shodiyeva tikish-bichishga qiziqadigan talaba qizlarga bu hunar sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Tikuvchilik to'garagimiz doim ochiq, talabalar bo'sh vaqtlarida kelib, ustozimizdan tikish-bichishni o'rganadi, - dedi universitetning biotexnologiyalar fakulteti 2-bosqich talabasi Madina Qurbonboyeva. - To'garakda qizlar universitetga zarur bo'lgan parda va turli kiyim-kechaklarni tikadi.

To'garakda kimdir tikish, kimdir to'qish yoki kashta tikish bilan band. Talaba qizlar bo'sh vaqtini o'zlarini sevgan hunar bilan mazmunli o'tkazmoqda.

Biz qizlar yotoqxonasidagi pazandalik to'garagida ham bo'ldik. Talabalar turarjoyida istiqomat qiluvchi qizlar birgalikda xamirli taom tayyorlashayotgan ekan.

- Bo'sh vaqtimizda turli xil milliy taomlar tayyorlaymiz, - dedi universitetning iqtisodiyot fakulteti talabasi Gulnardon Eshimova. - Boshqa viloyatlarning sevimli taomlarini ham tayyorlashga harakat qilamiz. Bugun Xorazmning milliy taomi - tuxum barak tayyorlayapmiz. Bu taomni qanday pishirishni xorazmlik dugonalarimiz o'rgatishyapti.

Universitetda besh muhim tashabbus doirasida yigirmadan ortiq to'garak mavjud bo'lib, ular talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan. Shuningdek, sport klubi faoliyat yuritmoqda. Klubda turli trenajer uskunalar, kurash gilami va boshqa sport anjomlari mavjud bo'lib, o'g'il bolalar darsdan so'ng milliy kurash, voleypol, basketbol, futbol kabi sport turlari bilan shug'ullanadi.

Talabalarni bilim olishga yanada qiziqitirish, ulardagi qobiliyatni ro'yogga chiqarish maqsadida tashkil etilgan "Zakovat" klubi haftaning dushanba, chorshanba kunlari fakultet va kurslar o'rtasida intellektual o'yinlar o'tkazadi. Bunday musobaqalarda talabalar rektor kubogi, dekan kubogi uchun kuch sinashadi. Musobaqa g'oliblari universitet tomonidan diplom va sovg'alar bilan rag'batlantirib kelinmoqda. Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi "Zakovat" intellektual o'yinlarida ham universitet talabalari faol ishtirok etib, faxrli o'rinni egallamoqda.

**Xurshida ERNAZAROVA,  
"Zarafshon" muxbiri.**

**Yoz kelishi bilan yoshlarning sevimli maskani hisoblangan istirohat bog'lari gavjumlashadi. Kimdir u yerga shunchaki sayr qilib, ma'naviy hordiq chiqarish uchun borsa, boshqalar ko'proq attraksionlarda uchishga qiziqadi. Biroq attraksionlardan foydalanishning ham xavfsizlik talablari bo'lib, undan xizmat ko'rsatuvchi ham, foydalanuvchi ham xabardor bo'lishi kerak.**

**Attraksionlarda uchishdan oldin...**

Vazirlar Mahkamasining

2022-yildagi 677-sonli qarori bilan attraksionlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha umumiy texnik reglament tasdiqlangan. Unga muvofiq, attraksion boshqarish tizimlari ogohlantirish signalizatsiyasi va xavfli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi nosozliklar haqida ogohlantiruvchi boshqa vositalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Attraksionlarning harakatlanuvchi qismlari ular shikast yetkazishi mumkin bo'lgan hududlarga odamlar kirishining oldini oluvchi to'siqlar bilan to'silgan bo'lishi shart. Ular fuqarolar, ayniqsa, yoshlar buzib kirmasligi uchun maxsus asboblarga yordamida ochiladigan tarzda mustahkamlanishi zarur.

Attraksionlarga kirish joyida fuqarolarning sog'lig'i, yoshi, bo'yi va vazniga oid cheklovlar to'g'risidagi ma'lumot joylashtirilishi ham muhim hisoblanadi. Boisi attraksionlar o'z turiga qarab, inson salomatligiga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Mazkur cheklovlarining o'rnatilmasligi amaliyotda ko'plab noxush holatlarga olib kelgan.

Fuqaro attraksiondan foydalanishdan oldin uning peshtoqida nazorat tekshiruvlari to'g'risidagi ma'lumot aks etgan axborot taxtachasi borligiga amin bo'lishi kerak. Agar aksi bo'lsa, bunday qurilmalardan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

**J.LAPASOV,  
Samarqand shahar favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimi, kapitan.**

## ↓ Sog'lom turmush tarzi

**Salomatlik inson uchun muhim bo'lib, uzoq va baxtli hayot kechirishining omili sanaladi. Sog'lom odamgina jamiyat rivojiga hissa qo'shadi, hayot tuhfalaridan bahramand bo'ladi.**  
Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotiga ko'ra, faqat davolashga asoslangan tabobat kishilar sog'lig'ini 8-10 foizdan ortiq ta'minlay olmasligini, kishilar sog'ligi 50-55 foiz holatda ularning turmush tarziga, 20 foiz holatda irsiy omillarga va yana 20 foiz holatda atrof-muhitga bog'liq.

## Me'yoridan uch baravar ko'p

## TUZ

## iste'mol qilamiz



Sog'lom turmush tarzi - insonning kun tartibiga rioya etishi, faol harakat asosida organizmini chiniqtirishi, sport bilan shug'ullanishi, sifatlí ovqatlanishi, gigiyenik qoidalarga amal qilishi, zararli odatlardan tiyilishidir. Serharakatlik organizmni tabii ravishda rag'batlantiradi. Shuning uchun sarg'ayrat, tinib-tinchimaydigan odamlar doimo tetik, bardam, keksayganlarida ham baquvvat va shijoatli bo'ladi. Afsuski, hozirgi urbanizatsiya sharoitida keng jamoatchilik va yoshlarimiz o'rtasida jismoniy faollik sezilarli kamayganligi ko'zga tashlanmoqda. Nosog'lom turmush tarzi va jismoniy nafaollik yurak-tomir tizimi kasalliklari, insult, xavfli o'smalar, nafas olish a'zolarining surunkali yallig'lanishi, qandli diabet kabi yuqumli bo'lmagan xastaliklarni keltirib chiqargani bois butun dunyo bo'yicha nogironlik va barvaqt o'limlar soni oshmoqda. Dunyoda ortiqcha vazn va semizlik muammosi yuzaga kelyapti.

Yurtimizda yuqumsiz kasalliklar tufayli o'lim holatlari 78 foizga yetdi. O'lim sabablarí strukturada birinchi o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari, jumladan, yurak ishemik kasalligi, arterial gipertoniya va uning asoratlari (miokard infarkti, insult va hokazo) egaladi (69 foiz). Ulardan keyin xavfli o'smalar (8 foiz), qandli diabet (3 foiz) va nafas olish a'zolari kasalliklari (3 foiz) o'rín oldi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan birgalikda 18-64 yoshdagi aholi orasida o'tkazgan o'rganishlari salbiy natijalarni ko'rsatdi. Xususan, aholining uchinchi qismi (67 foiz) sabzavot va mevalarni yetarlicha iste'mol qilmaydi (har kuni 400 gramdan kam), yarmi ortiqcha vaznga ega. Katta yoshdagi yurtdoshlarimizning har beshinchisida semizlik aniqlangan. Aholining 46 foizida qondagi xolesterin ortgan darajasi qayd qilingan. Erkaklarning 42 foizi va ayollarning 1,5 foizi tamaki iste'mol qiladi. Aholining deyarli uchdan bir qismida yuqori arterial bosim qayd etilgan. 40-64 yoshdagi insonlarning beshdan bir qismida o'n yillik yurak-tomir tizimi kasalliklarining rivojlanish xavfi darajasi 30 foizdan ortiq. Odamlar orasida bir kunda iste'mol qilinayotgan tuz miqdori o'rtacha 14,9 gramm tashkil qiladi. Bu esa

tavsiya etilgan ko'rsatkichdan (kuniga 5 gramdan kam) uch baravar ko'p.

Hozirda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirishni tashkil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish talab etilmoqda. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar va ularning xavf omillariga qarshi kurashish hamda oldini olish bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish, ommaviy sport harakatini tibbiyot profilaktikasi bilan integratsiyalashtirish bo'yicha ommaviy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xalqaro hamkorlikning samarali yo'liga qo'yilgan ishimizni yengillashtirmoqda. Jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining arterial gipertoniya, qandli diabet, bronxial astma va o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi hamda boshqa yuqumli bo'lmagan kasalliklar bo'yicha klinik protokollar, standartlar hamda tavsiyalar talablari birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari amaliyotiga tatbiq qilindi. 40 yosh va undan katta aholi o'zi istiqomat qilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining umumiy amaliyot shifokorlari va patronaj hamshiralari tomonidan reja asosida ommaviy skrining tadbirlari bilan qamrab olinmoqda. O'tgan davrda 1,3 milliondan ziyod fuqarolar yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavfi omillarini aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvlaridan o'tkazilgan bo'lib, turli darajadagi yurak-qon tomir kasalliklari aniqlandi va birinchi marta yuqumli bo'lmagan kasalliklarga chalingan bemorlar qat'i'i nazoratga olindi.

Aholi o'rtasida gimnastika mashqlarini bajarishi, haftasiga kamida bir marotaba yugurish, suzish, futbol, voleybol, basketbol, tennis mashg'ulotlari tashkil etish targ'ib qilinayapti.

Yurtdoshlarimizga har xil oyoq vannalari qabul qilish, tuzi hamda toshli yo'lakchalarda yurish, uyqudan oldin va keyin ochiq havoda sayr qilish organizmning immun tizimiga ijobiy ta'sir qilishi haqida tushunchalar berilyapti.

**Islom ShAMATOV,**  
**Sulaymon HALIMOV.**

**Insonning jamiyatdagi o'rni uning tafakkuri va salohiyati bilan belgilanadi. Jamoamizda halol mehnati, shijoati, kamtarligi bilan ko'pchilikka o'rnak bo'lib kelayotgan hamkasbimiz, ustoz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi, professor Erkin Xodjayevdir.**

E.Xodjayev 1939-yil 27-iyunda Samarqand shahrida dunyoga keldi. Bilim olishga tirishqoqligi bois shahardagi 18-maktabni a'lo baholar bilan bitirdi. So'ng Samarqand davlat universitetiga o'qishga kirdi. Universitetni bitirgach, Samarqand tibbiyot institutining siyosiy iqtisod kafedrasida o'qituvchi, Samarqand shahar Yoshlar uyushmasining birinchi kotibi vazifalarida ishladi. Ilmiy ish bilan shug'ullanish maqsadida aspiranturaga o'qishga kirdi. 1966-1976-yillarda Samarqand davlat universitetining siyosiy iqtisod kafedrasida o'qituvchisi, dotsenti vazifalarida mehnat qildi.

O'qituvchilik faoliyati davomida davlat moliya tarixi, moliya bozori va qimmatli qog'ozlar, moliyaviy risklarni boshqarish fanlaridan ma'ruza va amaliy darslar o'tdi.

Moliya bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarining huquqlarini himoya qilish yo'llari, korporativ boshqaruvni tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatlari, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashedirishni takomillashtirish mavzularida ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

## Salohiyatli olim, mohir iqtisodchi

Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda olimning 120 dan ortiq monografiya, ilmiy maqola, risola, o'quv-uslubiy qo'llanma, ma'ruza kurslari, uslubiy tavsiyalari nashr etildi. Hammualfilikda "Moliya bozori", "Investitsiya" darsliklari, "Solliqlar va soliqqa tortish" o'quv qo'llanmasi chop etildi.

Erkin Xodjayev o'z faoliyati davomida Samarqand qishloq xo'jaligi institutida kafedra mudiri, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi prezidiumi a'zosi va qo'mita raisi, Samarqand kooperativ instituti rektori, O'zbekiston Respublikasining Eron Islom Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi kabi mas'uliyatli vazifalarda ishladi.

Ayni paytda ustoz Samarqand iqtisodiyot va servis institutining moliya va sug'urta xizmatlari kafedrasida professor. Domla qayerda mehnat qilmasin, o'z bilim, tirishqoqligi, mehnatsevarligi bilan xalq ichida obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. Uning samarali mehnatlari hukumat tomonidan munosib taqdirlandi. Erkin Xodjayev "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi", "O'zbekiston Respublikasi Oliy



ta'lim a'lochisi", "Xalq ta'limi a'lochisi" kabi nufuzli mukofotlar sohibidir. Ustoz umr yo'ldoshi Sayyora aya bilan uch nafar farzand va bir necha nabiralarni kamolga yetkazib, baxtli hayot kechirmoqda. Mehnat faoliyatida va oilada baxt topgan ustoz bugun 85 yoshni qarshi olmoqda. Erkin Xodjayevni institut jamoasi va bir guruh shogirdlar nomidan qutlug' yoshi bilan tabriklaymiz.

**Jahongir ZAYNALOV,**  
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori.**

## Harbiylarga xos shijoati bor

**Yurtimizda shifokorlik kasbini hayotining mazmuniga aylantirgan fidoyilar ko'p. Ular dardiga shifo izlab kelgan bemorni tinglay bilish, unga ko'mak berish uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladi. Ana shunday shifokorlardan biri, Samarqand davlat tibbiyot universitetining odam anatomiyasi kafedrasida assistenti Baxtiyor Qiyomov Qashqadaryoning Chiroqchi tumanida tug'ilgan. Bolaligi qishloqda o'tgan Baxtiyor aka o'sib-ulg'aygach, Samarqand davlat meditsina institutiga o'qishga kirdi. Talabalik davrida malakali professor-o'qituvchilardan ilm oldi, tibbiyot sirlarini o'rgandi. 1986-yilda tibbiyot oliygohini bolalar shifokorligi mutaxassisligi bo'yicha tamomladi.**



Diplom olgach, mehnat faoliyatini Qarshi shahar tibbiyot birlashmasining tez yordam bo'linmasida boshlagan bo'lsa, keyinchalik Chiroqchi tumani tibbiyot birlashmasida vrach-pediatr vazifasida davom ettirdi.

B.Qiyomov ilm olishni davom ettirish maqsadida o'zi ta'lim olgan tibbiyot institutiga qaytib, anatomiya kafedrasiga kichik ilmiy xodim bo'lib ishga kirdi. Institutda ishlash yurgan paytda uni harbiy xizmatga chaqirishdi. Xizmatdan so'ng Samarqand tibbiyot kollejida bo'lajak hamshiralarga dars berdi. Qator yillar harbiy qismlarda zobit sifatida xizmat qildi. Ma'lum vaqt Samarqanddagi 64-maxsus maktab-internatda psixologiya va tibbiyot bo'limi boshlig'i bo'lib ishladi.

Asli kasbi shifokor bo'lgan B.Qiyomov 2019-2021-yil-

larda Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasida mehnat qildi. Ko'rinmas yov - koronavirusga qarshi kurashda jonbozlik ko'rsatdi, kechayu-kunduz tinim bilmay, bemorlar hayotini saqlab qolishga harakat qildi.

Keyingi yillarda aholi salomatligini mustahkamlashda xalq tabobatining o'rni beqiyos ekanini, dori-darmonlardan ko'ra, tabiiy giyohlarning samarali ekanini anglab yetgan tajribali shifokor ish faoliyatida shu usullardan keng foydalandi. Bugun bu borada universitet olimlari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda.

- Antibiotiklarga nisbatan tabiiy giyohlarning afzalligi ko'p, - deydi tajribali shifokor. - Kimyoviy dori-darmonlar inson organizmining biriga foyda keltirsa, ikkinchisini zaharlashi mumkin. Giyohlar esa bunday emas, zararli jihatlari kam. Tibbiyotdagi ilmiy izlanishlarda ana shu jihatlarga e'tibor qaratilsa, yaxshi bo'lardi.

B.Qiyomov bugungi kunga qadar tibbiyot universitetining odam anatomiyasi kafedrasida assistent lavozimida ilmiy ish bilan ham shug'ullanib, talabalarga saboq berib kelmogda. U o'z ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini Davlat ta'lim standartlari va xalqaro tajribalar asosida tashkil etishga, tibbiyot fanining yangiliklari bilan boyitib borishga harakat qiladi. Darslarida yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va elektron o'qitish vositalarini mohirona qo'llaydi.

Pedagog Baxtiyor Qiyomov talabchan, tartib-intizomli, harakatchan. Har ishda tashabbuskor, hamkasblariga nisbatan doimo mehribon va g'amxo'r. Mehnatsevarligi va insoniy xislatlari bilan jamoa va talabalar o'rtasida obro' va e'tibor qozongan. Ish faoliyatining ma'lum qismi harbiylar hayoti bilan bog'liq bo'lganidan bo'lsa kerak, unda harbiylarga xos bo'lgan shijoat, matonat bor. Vataniya, xalqiga bo'lgan sadoqati yuz-ko'zidan bilinib turadi.

**Inoyat ARKAYEV,**  
**II darajali "Sog'lom avlod uchun" va "Me'nhat shuhrati" ordenlari sohibi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Tilloyev Orzu Tillo o'g'liga (2023-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Quvandiqov Yaxshilik Jo'raqulovchiga (2023-yil 29-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 14-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Sagatov Gayratjon Nuratovichga (2023-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Egamov Vaxobga (2023-yil 14-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Filatova Svetlana Grigorevnaga (2023-yil 22-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ishankulov Xazirga (2003-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Jumagulov Raximberdi Egamberdiyevichga (2014-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xushvaxtga (2016-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Mirzayeva Dilshoda Shodiyevnaga (2021-yil 19-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

### "URGUT DEHQON BOZORI" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

**Urgut tumanidagi "URGUT DEHQON BOZORI" MCHJ ta'sischilarining umumiy hisobot yig'ilishi 2024-yil 28-iyun kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.**

**Ushbu yig'ilishga jamiyatning barcha ta'sischilari taklif etiladi. KUN TARTIBIDA:**

1. Jamiyatning 2023-yilgi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari yuzasidan jamiyat raisining hisoboti;
2. Jamiyat bosh hisobchisining 2023-yil yakuni bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy hisoboti;
3. Jamiyatning 2023-yilda olingan sof foydasini ta'sischilar o'rtasida taqsimlash, dividend miqdori va to'lovni amalga oshirish tartibi;
4. Taftish komissiyasining 2023-yil yakuni bo'yicha hisoboti;
5. Jamiyatning 2023-yilgi moliyaviy-xo'jalik faoliyati uchun auditor xulosasi hamda yillik balansini tasdiqlash;
6. Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolarini qayta saylash;
7. Jamiyat balansidagi yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish;
8. Boshqa har xil masalalar.

**"URGUT DEHQON BOZORI" MCHJ MA'MURIYATI.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xalimova Zamirga (2024-yil 11-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Raximova Sanoatga (2022-yil 13-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

# Muxbirlarning shifokori, shifokorlarning muxbiri

Telejurnal, "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni sohibi  
Abdurasul Ashurov suratiga chizgilar

So'z mas'uliyati og'ir va mashaqqatli. Haq so'zni aytish, xalq dardini olib chiqish, jurnalistik teran nigo bilan ko'ra bilish, oltin oraliqni saqlab turish chinakam mas'uliyat! Bunday mas'uliyat bilan uzoq va samarali mehnat qilish, ustozlik saodatiga erishish esa haqiqiy baxt. Jurnalistika so'z mas'uliyati, ijtimoiy fikrni shakllantirish, xolis axborotni yetkazish demakdir. Uni ulkan tilsimga o'xshatish mumkin. Sohani ochilmagan va ochiladigan qirralari ko'p. Ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritish uchun kishida faqat qiziqish, ishtiyoqning o'zi yetarli emas.



Kundalik hayotimizda yoki yon-atrofimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalar to'g'risidagi dalillarni tegishli manbalardan to'laqonli olish va ularni to'g'ri, xolis talqin etish hamda ommaviy axborot vositalarida tezkor yoritish jurnalist yoki jamoatchi muxbirdan katta mas'uliyat talab etadi. Dalillar to'laqonli bo'lmasa yoki naridan-beri olingan bo'lsa, yoziladigan maqola, tayyorlanadigan ko'rsatuv, eshittirish, lavha va reportaj yuzaki hamda ta'sirsiz chiqishi mumkin. Jurnalistika ijodkordan ana shunday chuqur mas'uliyat talab etadigan o'ta murakkab va nozik soha. Buni ushbu sohani qattiq nonini yegan va ishlaganlarga biladi hamda uning qadriga yetadi.

Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi muxbiri, "Shuhrat" medali sohibi Abdurasul Ashurov soha mashaqqatiga chidagan, so'z yukini his qilib kelayotgan ijodkorlardan.

Uni viloyatimizda ko'pchilik yaxshi taniydi. Shuningdek, Abdurasul aka tanimaydigan odam ham kam. Qariyb qirq besh yillik mehnat faoliyati davomida

viloyatimizning deyarli barcha go'shalarini ko'rgan, qanchadan-qancha odamlar uning ko'rsatuv, lavhalari qahramoni bo'lgan.

Abdurasul aka Ishtixonning Mopar qishlog'ida tug'ilib o'sgan. Toshkentda jurnalistik sabog'ini olgan. Nurobod tumani gazetasi faoliyatini boshlab, mana, 43 yildirki, viloyat teleradiokompaniyasida mehnat qilmoqda.

Ko'pchilik Abdurasul Ashurovni "Muxbirlarning shifokori, shifokorlarning muxbiri", deya e'tirof etishadi. Bu bejiz emas, albatta. 1995-2012-yillarda o'rindoshlik asosida Samarqand viloyat salomatlik markazi hamda Salomatlik va tibbiy statistika institutining viloyat filialida muxbir sifatida faoliyat ko'rsatib, sog'lom turmush tarzi tamoyillarini puxta o'zlashtirdi.

Shu sababdan viloyat teleradiokompaniyasida faoliyat yuritayotgan xodimlar yoki qarindosh, yoru birodarlari betob bo'lgudek bo'lsa, qayerga, kimga murojaat qilish haqida maslahat so'raydi. Usto esa tibbiyot sohasini yoritaverib, o'zi

ham shifokor bo'lib ketgani bois tegishli tavsiyalarni ham berishni kanda qilmaydi. Sog'liqni saqlash borasida qilinayotgan eng dolzarb ko'rsatuvlar ustozga ishonib topshiriladi. Shu bois ham Abdurasul Ashurov shifokorlarning muxbiriga aylanib ketgan.

2023-yilning noyabr oyi ikkinchi yashanbasida nishonlangan tibbiyot xodimlari kunida shifokor muxbir "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Bugungi global shahar davrida matbuot va ommaviy axborot vositalarining jahon axborot bozorida o'z o'rnini hamda nufuziga ega bo'lishi oson emas. Buning uchun eng avvalo, ko'rsatuv yoki eshittirish, xabar, maqola tayyorlashda dalillarni ishonchli manbalardan va mas'ullardan olish hamda ularning to'g'ri, tezkor, xolis yoritilishi muhim ahamiyatga ega.

Abdurasul Ashurov ana shunday usulda ishlab, o'z maktabini yarata oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Teleradiokompaniyaga kelayotgan yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, soha sir-asrorlarini o'rgatish borasida ham samarali mehnat qilaypti.

Jurnalist doimo davr bilan hamnafas bo'lib, o'z ustida ko'proq ishlaydi, o'qib-izlanishi talab etiladi. Mehnatdan to'xtash kamolotdan to'xtash demakdir. Abdurasul Ashurov ushbu aqidaga amal qiladi.

Kitob o'qiydi, gazeta varaqlaydi, internet sahifalarini kuzatadi. Tayyorlanayotgan teleradiomahsulotlarida esa bu yangiliklarni aks ettirishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qiladi.

Kasbidan baxt, el ichra e'zoz topib, hayot sahifalarini ezgu amallarila bezab kelayotgan Abdurasul Ashurovning rejalarini bisyor. Bu orzu-maqasdlar esa ijodkorga yangicha kuch va shijoat, g'ayrat bag'ishlamoqda.

**Nozigu RUSTAMOVA, Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi televideniye guruhi maxsus muxbiri.**

Bundan ikki yil avval ommaviy axborot vositalari vakillari uchun gender tenglik mavzuida yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda gender tenglik, uning mamlakatimizdagi huquqiy asoslari, ushbu tushuncha zamiridagi ijobiy holatlar haqida so'z yuritildi. Dunyo miqyosida va mamlakatimizda bu masalada olib borilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tildi. Hech kimga sir emas, bu kabi yig'ilishlarda gender tenglik desa, ensasi qotadigan kishilar ham hamma ma'lumotlarni indamay eshitib o'tiradi. Ammo ich-ichida shu narsa bizga kerakmi o'zi, milliyligimizga sirayam to'g'ri kelmaydi-ku, degan xayollar bilan o'tiraveradi. Erkaklarni-ku, qo'ying, hatto aksar ayollar ham shunday fikrda.



tenglikning

notengliklari

Ullas, shu xayollar bilan o'tirgan shekilli, ommaviy axborot vositasi xodimlaridan biri yig'ilish so'ngida ekspertlarga savol bilan murojaat qildi:

"Xo'sh, gender tenglikka erishmoqchi ekansizlar, unda ayollarning ish vaqtini qisqartirib, qonunchiligimizga shunaqa o'zgartirish kiritilsin. Ayollar ishda kamroq mehnat qilib, yudagi vazifalarni ham uddalab qo'ysin.

To'g'ri, ishtirokchilar ham, ekspertlar ham bu savoldan unchalik hayratlanishmaganidan, aksincha, uni tabiiy, deb qabul qilganidan hayron qoldim. Taklifingizni o'rganib chiqamiz, deysingani esa gender tenglik haqida tushuntiruvchidayam, tushunuvchidayam yetarli tushuncha yo'qligini ko'rsatib qo'ydi. Hech kim aytmadiki, ayollar ish vaqtining hukumat tomonidan qisqartirilib bu ularning ish topishida qator tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi va bu biz o'ylagandan ko'ra ko'proq muamlolarga olib keladi. Uyda esa erkak, ayol yumushlarni teng taqsimlamasa-da, ammo birgalikda, yelkama-elka amalga oshirishi bu normal holatga aylanishi lozim. Shunday bo'lmas ekan, bugun o'ladagi muvozanat buzilaveradi, bu esa oilaning darz ketishiga sabab bo'laveradi.

To'g'ri, ming yildan beri qotib, shakllanib qolgan tushunchalarimizga ko'ra, erkak kishining, deylik, idish-tovog yuvib o'tirishi xayolimizga sig'maydi. Ba'zi ayollarning o'zi bu holatdan dod, deb yuborishi mumkin. Qishloq hududlarida esa hatto og'ir ish bo'lsa-da, erkak kishining ro'z'orga suv tashib keltirishi ham uyati holatga aylanib ulgurgan. Nega? Ro'z'orda ayol kishiga yordam berishni, ayniqsa, qishloq hududlarida nega bunalchilik darajasigacha tushirib qo'yanmiz? Bu qaysi mezonlarga to'g'ri keladi o'zi? Nega biz gender tenglik degan tushunchadan, u aslida nima iborat ekanini bilmay turib, bunalchilik hayiqamiz?

Gender tengligi bu - erkaklar va xotin-qizlar tengligi, insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, gender tenglik iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ham negizi hisoblanadi. Milliy qonunchiligimizga «gender» tushunchasi 2019-yil 3-sentabrda O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida» Qonuni bilan kiritilgan bo'lib, unga ko'ra, gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilmfan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu qonun bilan gender statistikasi - davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har hil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi, gender-huquqiy ekspertiza - normativ-huquqiy hujjatlarini hamda ularning loyihalarni

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqiy yuzasidan tahlil qilish kabi tushunchalar ham qonunchiligimizga kiritildi.

Ushbu qonunda agar shaxs o'zini jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga egaligi, bunda jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan shaxsdan davlat boji undirilmasligi, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi to'g'risidagi ishlarni sudlarda ko'rish chqolida advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmatlarga haq to'lash qonunchilikda belgilangan tartibda, ularning xohishiga ko'ra, davlat hisobidan qoplanishi ham nazarda tutilgan.

Xabaringiz bor, yaqinda Samarqandda ilk bor Osiyo xotin-qizlari forumi o'tkazildi. Unda xotin-qizlarni iqtisodiy, huquqiy qo'llab-quvvatlash nafaqat oilalarga, balki jamiyatga yirik foyda keltirilishi ta'kidlandi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tinchlik jarayonlarida ayollar va erkaklar teng vakil bo'lgandagina barqaror tinchlikka erishish mumkin, - dedi o'z nutqida BMTning Jenevadagi bo'limi bosh direktori Tatyana Valovaya. - Shuning uchun diplomatiyada gender tengligi faqat adolat masalasi emas, yanada keng qamrovli va barqaror tinchlik kelishuvlariga olib keladi.

Gender tengligi, shuningdek, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning muhim omili bo'lishi mumkin, ya'ni ayollar ta'lim, bandlik va resurslardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lsa, butun iqtisodiyot rivojlanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, agar gender bandligi tafovutlari bartaraf etilsa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uzoq muddatli yalpi ichki mahsulot deyarli 20 foizga yuqori bo'lar edi. Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga sarmoya kiritish shunchaki to'g'ri ish emas, bu - aqlli iqtisodiy strategiya.

Biroq dunyoda ayollar va qizlar muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda va 2030-yilgi kun tartibi xavf ostida. Ayollar va qizlarga nisbatan chuqur ildiz otgan diskriminatsiya saqlanib qolmoqda, bu tizimli tengsizlikka olib keladi, ayniqsa, siyosiy ishtirok, iqtisodiy imkoniyatlar va huquqiy himoya sohalarida.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Gender Snapshot - 2023" hisobotida aytilishicha, hozirgi rivojlanish suratida gender tengligiga to'liq erishish endi qariyb 300 yil davom etishi mumkin.

Ushbu forum haqida axborot tayyorlab, sarlavhasiga unda bildirilgan bitta faktni misol tariqasida keltirdim: "Dunyodagi har uchinchi ayol zo'ravonlikka uchramoqda". Ba'zi hamkasblarim "bizda unday emas, bu statistikaga qanday qo'shilamiz", deb e'tiroz bildirdi.

Uyida tarsaki yeb, ko'chaga jilmayib chiqadigan ayollar bizda qancha ekanligini siz bilasizmi? Buning hisobini yurita olasizmi? Bu tarsakiga ham o'zim aybdorman-da, deb ertasi kuni unuvoradigan, "ering uradi-ku", desa, kim aytdi, deya yoqasidan oladigan ayollar kammi? Ular bizning oramida-ku axir?! Nahot ularni ko'rish qiyin bo'lsa?

Xullas, ushbu forum doirasidagi xayollar bilan uyga kelib, beixtiyor oilaviy dasturxon atrofida ham shu haqda gaplasha boshladim. Aslida gender tenglik tushunchasi qo'rqinchiligi emas-ku, nega uni qabul qilishimiz bunalchilik qiyin, deya jon koyitgan bo'ldim.

- Bo'ldi, ovozining o'chir, bu haqda maqolanga aytasan, menga emas, - degan javobni eshitdim. Shu bilan gap tugadi...

**Gulruh MO'MINOVA.**

## Paxtachilik yigitlar va jomboylik qizlar musobaqaning respublika bosqichida



**Samarqand shahrida 16-30 yosh toifasida mini futbol bo'yicha yigit-qizlar o'rtasida «Davlat xavfsizlik xizmati kubogi» musobaqalarining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.**

Bahslar natijasiga ko'ra, qizlar o'rtasida Jomboy tumanining "Nafis" jamoasi musobaqaning respublika yo'llanmasiga ega chiqdi. Aytish joizki, o'tgan yilgi bahsda "Nafis" qizlar jamoasi DXX kubogini qo'lga kiritgan edi. Keyingi o'rindar Urgut tumanining "To'maris" va Payariq tumanining "Sevinch" jamoalariga nasib etdi.

Yigitlar o'rtasidagi bahsda Paxtachi tumanining Gulobod mahallasi yoshlariga teng keladigan tashkiloti va musobaqaning respublika bosqichiga boradigan bo'ldi. Ikkinchi va uchinchi o'rindarlari Nurobod tumanining Nurbuloq mahallasi jamoasi hamda Samarqand tumanining Arabxona mahallasi yoshlari egalladi.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 209 nusxada chop etildi. Buyurtma 326. Hajmi 2 bosma ta'baq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonaning manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**T.SIDDIQOV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda